

**O'zbekiston Respublikasi Aloqa, Axborotlashtirish va  
Kommunikatsiya Texnologiyalari Davlat Qo'mitasi  
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti**

Kasbiy talim fakulteti

Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik kafedrası

**REFERAT**

**Mavzu: «Bibliografik ko'rsatgich»**


Bajardi: 291-10 guruhi

Xo'jayorov M.

Tekshirdi: Zulfikarov B.

Toshkent-2014

## Adibning hayoti va ijodi.



XX asr o'zbek milliy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, buyuk romannavis Abdulla Qodiriy (Julqunboy) istiqlol davriga kelib chin ma'noda hurmat va e'zozga kirdi. Hozirgi kunda bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona va institutlar yozuvchining tabarruk nomi bilan ataladi. Adib nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutida eng bilimdon talabalarga Abdulla Qodiriy nomidagi stipendiya belgilangan. Bu davrga kelib qodiriyshunoslik degan fanning alohida yo'nalishi yangidan rivoj topa boshladi.

### TARJIMAI HOL

XX asr o'zbek milliy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, buyuk romannavis Abdulla Qodiriy 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug'ildi. Uning tarjimai holidagi quyidagi so'zlar yozuvchining 1926 yilga qadar kechgan hayotiga oydinlik kiritadi: «Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguchi bir oilada... tug'ilg'onman. Yoshim to'qqiz-o'nlariga borg'ondan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar.



Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv bilaturg'on odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabiga yubordi... 1912 yilda manufaktur bilan savdo qiluvchi bir kishiga yilig'a 50 so'm barobariga prikazchik bo'lub kirdim...

Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadig'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim, 1913 yilda o'zbekcha «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalari chiqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi... 1913 yilda chiqqan «Padarkush» ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoya va romonlarga taqlidan «Juvonboz» otliq hikoyachani yozib, noshir topilmog'onidan, o'zim nashr qilib

yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim...

1918 yil boshlarida Eski shahar oziq qo'mitasi boylar qo'lidan olinib, qo'mitaning raislig'iga o'rtoq Sultonxo'ja Qosimxo'jayev tayin qiling'on edi va men mazkur qo'mitaning o'zbekcha sarkotiblig'iga kirdim. 1919 yilning avvallarida oziq qo'mitasining ismidan chiqarilmoqchi bo'lg'on «Oziq ishlari» gazetasiga muharrir bo'lib tayinlandim...

Shu kungacha sho'ro idoralarida qilg'on xizmatlarimni birma-bir sanab o'tirishim uzoqqa cho'ziladurg'on bo'lg'onliqdin mundan keyin muassasa ismlarinigina atash bilan kifoyalanaman: «Rusto» devoriy gazetasiga muxbir bo'lib, «Ishtirokiyun» va «Qizil bayroq» gazetalarida sotrudnik...

«Mushtum» jurnalining muannisi va tahririya a'zosi bo'lib, to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o'tgan yetti yil orasida Sho'rolar hukumati va firqadan bir og'iz tanbeh olmadim.

Xulosa - boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo'lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir... Ishchi-dehqonlar yozg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmalar...».

Abdulla Qodiriy Amir Umarxon davri va Namoz o'g'ri haqida romanlar yaratish orzusida bo'lgan. Ammo mustabid tuzum bu orzularining to'la ro'yobga chiqishiga imkon bermadi. Abdulla Kodiriy 1926 yilda «Mushtum»da bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937 yilning 31 dekabrda esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938 yil 4 oktabrda Toshkentda otib tashlangan.

Uning asarlari 1956 yilda oqlangandan boshlab yangidan nashr etildi. Aslida Abdulla Qodiriy istiqloq davriga kelib chin ma'noda hurmat va e'zozga kirdi. 1990 yilda Respublika Prezidentining farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta'sis etildi. 1991 yili esa Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. 1994 yili - Mustaqillikning uchinchi yilida unga «Mustaqillik» ordeni berildi.

Adibning ilk ijodi 1913-1914 yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratgan.

Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y», «Fikr aylag'il» kabi she'rlari «Sadoi Turkiston» gazetasi va «Oina» jurnalida (1914-1915) bosilgan. A.Qodiriy mazkur she'rlarida millatdoshlarini jaholat va xurofotga qarshi kurashga chaqirib, ma'rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. Bu yillarda u «Baxtsiz kuyov»,

«Hech kim bilmasin» (1915) kabi sahna asarlarini ham yozgan. Uning «Juvonboz», «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarida o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

Adib dastlabki asarlarini turli taxalluslar ostida e'lon qilgan. Shu taxalluslardan biri va xalq o'rtasida mashhur bo'lgani Julqunboydir.

### **Tavsiflar:**

1. G'aniyeva M. Qodiriy saboqlari: [Jadidchilik maktabin tashkil etishda qo'shgan beqiyos hissasi haqida]// Ma'rifat.- 2011.-12-son.- b.5-6.
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati.[Matn]// M.Qo'shjonov; ma'sul muxarrir. M.Axrоров.- T.: Fan, 1966. - 238 b.: rasm.- 2000 nusxa.
3. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi.[Matn]// M. Qo'shjonov; ma'sul muxarrir M. Abduxakimov.- T.: Fan, 1994.- 350b.: rasm.- 1200 nusxa.
4. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. [Matn]// I.Mirzayev.- T.: Fan, 1977.-101b.: rasm.-1000 nusxa.
5. Qodiriy H. Otam haqida [Matn]// H. Qodiriy.- T.: Fan, 1983.- 100b.: rasm.- 2000 nusxa
6. Karimov B. 20 asr o'zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi (Qodiriyshunoslik misolida). FFD dissertatsiyasi, T., 20
7. Karimov B. "XX asr o'zbek adabiyotida talqin muammosi (qodiriyshunoslik misolida)" [Matn]// B.Karimov T.: Fan, 2012.- 350b.: rasm.- 10000 nusxa. ISBN 978-9943-00-522-8.
8. 11. Normatov U. Qodiriy bog'I [Matn]// U.Normatov.- T.: O'qituvchi, 2011.- 258b.: rasm.- 1500 nusxa.- ISBN 978-9943-01-529-6.
9. Kushjonov M. O'zbek shoiri [Matn]// M.Kushjonov.- T.: O'qituvchi, 1994.- 325b.: rasm.- 1500 nusxa.- ISBN 978-9943-01-530-7.
10. Tursunova M. Abdulla Qodiriyning tasviri. [Matn]// M.Tursunova.- ma'sul muxarrir. M.Axrоров.-T.:O'qituvchi, 2013.-250b.: rasm.-1500 nusxa. ISBN 978-9943-05-555-7
11. Mirzaev I. Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi. [Matn]// I.Mirzayev.- T.: Fan, 1977.-101b.: rasm.-1000 nusxa.
12. G'aniyeva M. Qodiriy saboqlari: [Qodiriy haqida gapim bor]// Ma'rifat.- 2011.-12-son.- b.5-6.
13. Qodirov A. Qodiriyning tasvirlash san'ati[Qodiriyning tasvirlash san'ati]//Ma'rifat.- 1926.-6-son.- b.3-5.
14. Berdiyev A. Fitna san'at [Matn]// A. Berdiyev: ma'sul muharrir. A.Qo'shjonov.-T.: Fan, 1993.-256b.: rasm.- 1500 nusxa.

15. Abdulla Qodiriy Jinlar Bazmi [Matn]: Xikoyalar to'plami / A. Qodiriy & sh.; - T.: O'zbekiston .-1960.- 101 b.-ISBN-978 9913 32 18 25.
16. Abdulla Qodiriy Mehrobdan chayon [Matn] : Romon / A. Qodiriy; - T.: Toshkent; .-1980.- 320 b.-ISBN-978 9943 90 78 19.
17. Abdulla Qodiriy O'tgan kunlar [matn]: roman / Abdulla Qodiriy. - T.: Sharq, 2004.- 384 b.: rasm.- (muqov).- 10000 nusxa.
18. Abdulla Qodiriy. Saylanma [Matn] / A. Oripov .- T.: Voris , 1996 .- 409 b.- 20000 nusxa.- (muqov).- 945 s.
19. Abdulla Qodiriy. Yillar armoni [Matn] / A. Oripov .- T.: A. Qodiriy, 1983 .- 337 b.- 5000 nusxa.- (muqov).
20. Abdulla Qodiriy. Hayrat [Matn] / A. Oripov .- T.: Noshir , 1979.-126 b.- 4000 nusxa.

### **Umumiy annotatsiya**

O'zbek nafosat olamida, ya'ni she'riyatida o'z ovozi va uslubiga ega bo'lgan shoir, "Abdulla Qodiriy she'riyati" degan tushuncha mustahkam qaror topgan.

Abdulla Qodiriy asarlari zamirida hayotning ichiga chuqur kirib borish, hayot haqiqatini tasvirlashdagi qat'iyat va izchillik, chuqur obrazlilik, fikr va tuyg'uning ajoyib bir tarzda omuxtaligi, shiddatkor ruh, ichki drammatizm, poetik tafakkurning teranligi, Sharq va G'arb she'riyatining eng yaxshi an'analari uyg'unlashgan jihatlarni asarlarini o'qish davomida tasavvur qilib olishingiz mumkin.

Undan tashqari shuni aytish mumkinki, shoir asarlarining o'ziga xosligi isyonkor ruh bilan sug'orilgan tug'yonli, lirik-falsafiy, teran mushohadali, hayotni o'zicha ko'rgan chinakam milliy va xalqchil she'rlari og'ir sukunatni titratib yuborgan momaqaldir oq yanglig' yangrashida.

Aziz kitobxonlar, siz Abdulla Qodiriy asarlarini mutola qilib ajoyib va durdona she'riyat olamidan bahramand bo'lasizlar degan umiddaman.

### ***Foydalangan resurslar***

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) sayti
2. [www.wikepediya.uz](http://www.wikepediya.uz) sayti
3. [www.google.uz](http://www.google.uz) sayti